O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

# ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 3

2026

# International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 3
2026

# Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

3-son
2026

# Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 3
2026

# MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

## Xalqaro ilmiy-elektron jurnali



**Tahrir kengashi raisi:**

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

**Bosh muharrir:**

A.A. Abdumalikov

**Tahrir kengashi mas’ul kotibi:**

D.M. Jomurodov

**Tahririyat hay’ati:**

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)



*Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar* xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.



**© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023**



**Tahririyat manzili:**

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

# IQTISODCHI MUTAXASSISNING KASBIY FAOLIYATIDA XORIJIY TILNING FUNKSIONAL VAZIFALARI

**Abdimurodova Shaxnoza Anvar qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, katta oʻqituvchi.

**Annotatsiya.**

Ushbu maqolada bugungi globallashuv jarayoni va xalqaro iqtisodiy integratsiya sharoitida boʻlajak iqtisodchi mutaxassisning kasbiy faoliyatida xorijiy til bajaradigan funksional vazifalar tizimli va kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqot English for Specific Purposes (ESP — maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) yondashuvi asosida qurilgan boʻlib, unda til oʻrgatish umumiy kommunikativ koʻnikmalardan farqli ravishda aniq kasbiy ehtiyojlarga yoʻnaltirilishi lozimligi asoslangan. Maqolada beshta asosiy funksional yoʻnalish — axborot-kognitiv, kommunikativ-muzokara, analitik-yozma, terminologik-tarjimaviy va kasbiy rivojlanish funksiyalari har tomonlama yoritilgan hamda ularning har biriga xos til koʻnikmalari va kompetensiyalar aniqlangan. Shuningdek, ushbu funksiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan metodik muammolar hamda ularni bartaraf etish yoʻllari boʻyicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalaridan oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy yoʻnalish talabalari uchun kasbiy yoʻnaltirilgan xorijiy til oʻqitish dasturlarini takomillashtirishda, shuningdek, amaliyotchi iqtisodchilarning malakasini oshirish tizimida foydalanish mumkin.

**Kalit soʻzlar:** xorijiy til, iqtisodchi mutaxassis, kasbiy kompetensiya, kasbiy yoʻnaltirilgan til ta'limi (ESP), terminologik ekvivalentlik, xalqaro iqtisodiy hamkorlik, ikkilamchi til shaxsi, akademik yozuv madaniyati.

# ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ЗАДАЧИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СПЕЦИАЛИСТА-ЭКОНОМИСТА

**Абдимуродова Шахноза Анвар кизи**

Ташкентский государственный экономический университет, старший преподаватель.

**Аннотация.**

В статье системно и комплексно анализируются функциональные задачи иностранного языка в профессиональной деятельности будущего специалиста-экономиста в условиях современных процессов глобализации и международной экономической интеграции. Исследование построено на основе подхода English for Specific Purposes (ESP — английский язык для специальных целей), согласно которому обучение языку, в отличие от формирования общих коммуникативных навыков, должно быть ориентировано на конкретные профессиональные потребности. В статье всесторонне рассматриваются пять основных функциональных направлений: информационно-когнитивная, коммуникативно-переговорная, аналитико-письменная, терминологическо-переводческая функции и функция профессионального развития. Определены характерные для каждого из этих направлений языковые навыки и компетенции. Кроме того, выявлены методические проблемы, возникающие при реализации данных функций, и разработаны предложения по их преодолению. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования программ профессионально ориентированного обучения иностранному языку студентов экономических направлений высших образовательных учреждений, а также в системе повышения квалификации практикующих экономистов.

**Ключевые слова:** иностранный язык, специалист-экономист, профессиональная компетенция, профессионально ориентированное языковое обучение (ESP), терминологическая эквивалентность, международное экономическое сотрудничество, вторичная языковая личность, культура академического письма.

# FUNCTIONAL ROLES OF A FOREIGN LANGUAGE IN THE PROFESSIONAL ACTIVITIES OF AN ECONOMIST

**Abdimurodova Shaxnoza Anvar qizi**

Tashkent State University of Economics, Senior Lecturer.

**Abstract.**

This article provides a systematic and comprehensive analysis of the functional roles of a foreign language in the professional activities of future economists in the context of contemporary globalization and international economic integration. The study is based on the English for Specific Purposes (ESP) approach, which emphasizes that language instruction, rather than focusing solely on general communicative skills, should be oriented toward specific professional needs. The article examines five major functional areas: information-cognitive, communicative-negotiation, analytical-writing, terminological-translation, and professional development functions. The language skills and competencies specific to each area are identified. In addition, methodological challenges associated with the implementation of these functions are analyzed, and recommendations for overcoming them are proposed. The findings may be applied to improve professionally oriented foreign language programs for economics students in higher education institutions, as well as professional development programs for practicing economists.

**Keywords:** foreign language, economist, professional competence, English for Specific Purposes (ESP), terminological equivalence, international economic cooperation, secondary linguistic personality, academic writing culture.

**Kirish**. Jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuvi, transmilliy korporatsiyalar faoliyatining kengayishi, xalqaro moliyaviy institutlar (Xalqaro Valyuta Fondi, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) bilan hamkorlikning kuchayishi hamda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iqtisodchi mutaxassis oldiga yangi, murakkab talablarni qo‘ymoqda. Ushbu talablar orasida xorijiy tilni kasbiy darajada egallash alohida o‘rin tutadi. Zamonaviy iqtisodchi nafaqat milliy iqtisodiyot doirasida, balki xalqaro miqyosda ham faoliyat yuritishga qodir bo‘lishi lozim, bu esa xorijiy tilni shunchaki umumiy kommunikativ vosita sifatida emas, balki kasbiy faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida o‘zlashtirishni taqozo etadi.

Oliy ta’lim tizimida xorijiy til o‘qitish amaliyotida ko‘pincha umumiy til ko‘nikmalariga urg‘u berilib, iqtisodchi mutaxassisning o‘ziga xos kasbiy ehtiyojlari yetarlicha inobatga olinmaydi. T. V. Ivanchikova ta’kidlaganidek, iqtisodchilarning kasbiy nutqi o‘ziga xos etik va pragmatik omillarga bog‘liq bo‘lib, u umumiy adabiy tildan sezilarli darajada farqlanadi. Shu sababli xorijiy tilning iqtisodchi faoliyatidagi aniq funksional vazifalarini ilmiy asoslash va ularga mos til ta’limi metodikasini ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi. Iqtisodchi mutaxassis faoliyatida xorijiy tilning bajaradigan funksional vazifalarini aniqlash, tizimlashtirish va har bir funksiya doirasida talab etiladigan kasbiy-lisoniy kompetensiyalarni belgilashdan iborat. Shu bilan bir qatorda, iqtisodchi faoliyatida xorijiy tilning tutgan o‘rnini nazariy jihatdan asoslash, xorijiy tilning asosiy funksional yo‘nalishlarini aniqlash va tavsiflash, har bir funksiya doirasida yuzaga keladigan metodik muammolarni tahlil qilish, kasbiy yo‘naltirilgan til ta’limini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish bugungi kunda zamonaviy va yetuk malakali iqtisodchi kadrlar tayyorlashning muhim vazifasiga aylandi.

ESP (maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) yondashuvi 1960-yillarning oxiridan boshlab tilshunoslikda alohida yo‘nalish sifatida shakllandi. T. Hutchinson va A. Waters ta’kidlashicha, ESP — bu metod emas, balki yondashuv bo‘lib, uning markazida “nima uchun o‘quvchiga til kerak?” degan savol turadi. Bu yondashuvga ko‘ra, til o‘qitish dasturi o‘quvchining kelajakdagi kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib loyihalashtirilishi lozim. Iqtisodchilar uchun til o‘qitish, demak, umumiy grammatika va leksikadan tashqari, aynan iqtisodiy diskursning janr va registr xususiyatlarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Shu boisdan iqtisodchi mutaxassis o‘z faoliyatida xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan hisobotlar, shuningdek, nufuzli ilmiy jurnallarda (Journal of Finance, American Economic Review, Quarterly Journal of Economics) chop etilgan tadqiqotlar bilan bevosita ishlaydi. Ushbu funksiya asl manbadan foydalanishni taqozo etadi, zero statistik terminologiya va metodologik tushunchalarning tarjimasi ko‘pincha ma’no siljishiga olib keladi. Masalan, “elasticity”, “leverage”, “hedge” kabi terminlarning kontekstual ma’nosini to‘g‘ri anglash uchun ularni asl tilda idrok etish talab qilinadi. Bu funksiya doirasida talaba yoki mutaxassisdan quyidagi ko‘nikmalar talab etiladi: tezkor o‘qish va matnni skanerlash (skimming/scanning), asosiy g‘oyani ikkinchi darajali ma’lumotdan ajrata olish, statistik jadval va grafiklarni tahlil qilish uchun zarur leksikani bilish hamda manba ishonchliligini baholay olish.

Xalqaro shartnomalar tuzish, investitsiya muzokaralarini olib borish va konsalting loyihalarini amalga oshirish jarayonida iqtisodchi tarjimon vositachiligisiz muloqot qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Bunda til nafaqat leksik-grammatik bilim, balki xalqaro biznes-etiketning lisoniy ifodasi, shuningdek, muzokara strategiyasining pragmatik

vositalari (diplomatik ifoda usullari — "hedging language", kelishuvga erishishning nutqiy strategiyalari) bilan uzviy bog'liqdir. Yu. I. Verbinenko qayd etganidek, ingliz tili xalqaro konferensiyalar, muzokaralar va bitimlarning global tili sifatida iqtisodiyot va moliya sohasi mutaxassislarining bilim darajasini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylandi. Xalqaro kompaniyalar o'z xodimlaridan aynan shu sababdan yuqori darajadagi til kompetensiyasini talab qiladi.

Shuningdek, xalqaro grantlar uchun loyiha hujjatlarini, ilmiy maqolalarni va tender takliflarini xorijiy tilda tayyorlash iqtisodchidan iqtisodiy diskursning janr xususiyatlarini (abstract, literature review, methodology, findings, discussion) chuqur bilishni talab qiladi. Bu funksiya shunchaki tilni bilishdan tashqari, ilmiy-akademik yozuv madaniyatini, ya'ni fikrni izchil, dalillarga asoslangan va akademik uslubga mos tarzda bayon eta olish qobiliyatini ham nazarda tutadi. M. V. Koltunova ta'kidlaganidek, yuqori nutq madaniyati va rivojlangan iqtisodiyot ilg'or mamlakatlarda bir-biridan ajralmas hodisalardir; aksincha, past nutq madaniyati kasbiy faoliyat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu qoida xorijiy tildagi yozma nutqqa ham to'liq taalluqlidir.

Xalqaro miqyosda tan olingan sertifikatlash dasturlari — CFA (Chartered Financial Analyst), ACCA (Association of Chartered Certified Accountants), CIMA (Chartered Institute of Management Accountants) — asosan ingliz tilida tashkil etiladi. Ushbu dasturlarga kirish, ularda ta'lim olish va muvaffaqiyatli yakunlash bevosita xorijiy til kompetensiyasining darajasiga bog'liq bo'lib, bu kasbiy o'sish va martaba rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Bundan tashqari, xalqaro tajriba almashinuvi dasturlari, xorijiy universitetlarda malaka oshirish va transmilliy kompaniyalarda ishlash imkoniyatlari ham bevosita til kompetensiyasi bilan bog'liqdir.

**XULOSA**

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, xorijiy til iqtisodchi mutaxassis faoliyatida beshta o'zaro bog'liq funksional vazifani bajaradi: nazariy-metodologik asos (ESP yondashuvi), axborot-kognitiv, kommunikativ-muzokara, analitik-yozma, terminologik-tarjimaviy va kasbiy rivojlanish funksiyalari. Ushbu funksiyalarning har biri o'ziga xos til ko'nikmalari va kompetensiyalarini talab etadi, bu esa iqtisodiy yo'nalishdagi til ta'limi dasturlarini ishlab chiqishda kasbiy yo'naltirilgan (ESP) yondashuvni izchil qo'llash zaruratini kun tartibiga qo'yadi. Ushbu funksiyalarning har birini amaliy o'quv materiallari va zamonaviy metodikalar (korpusga asoslangan ta'lim, raqamli simulyatsiyalar, sun'iy intellekt vositalaridan foydalangan holda til mashqlari) orqali qanday rivojlantirish mumkinligini o'rganish, shuningdek, ushbu yondashuvning talabalar kasbiy kompetensiyasiga ta'sirini empirik tarzda o'lchash dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu sababdan bo'lajak iqtisodchi mutaxassislar uchun sifatli ta'limni tashkil etish, ularni kelgusida jahon standartlariga to'la javob beradigan, ilmiy salohiyatli kadrlar darajasiga olib chiqish har bir ta'lim beruvchining ustuvor maqsadiga aylangan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Hutchinson T., Waters A. *English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach.* – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
2. Dudley-Evans T., St John M. J. *Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach.* – Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
3. Иванчикова Т. В. Специфика профессионального языка экономистов // *Вестник РУДН. Серия «Вопросы образования: языки и специальность».* – Москва: РУДН, 2011. – С. 109–115.
4. Вербиненко Ю. И. Роль иностранного языка для специалистов в экономической сфере // *Матеріали конференції.* – Київ: Національний університет харчових технологій. – С. 368–370.
5. Вишневецкая Н. А. Методика обучения иностранному языку на неязыковых факультетах вузов // *Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена.* – Санкт-Петербург, 2009. – № 29 (65). – С. 368–370.
6. *Профессионально ориентированное обучение иностранному языку в неязыковом вузе: сборник научных статей* / НИУ ВШЭ. – Москва: НИУ ВШЭ.
7. IFRS Foundation. *International Financial Reporting Standards (IFRS): rasmiy hujjatlar.* – IFRS Foundation
8. CFA Institute. *CFA Program Curriculum: rasmiy o'quv dasturi materiallari.* – CFA Institute
9. Basel Committee on Banking Supervision. *Basel III: A Global Regulatory Framework for More Resilient Banks and Banking Systems.* – Basel: Bank for International Settlements.
10. International Monetary Fund. *World Economic Outlook Reports.* – Washington, D.C.: IMF Publications. – International Monetary Fund